

BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Domonova Dilfuza O‘ktam qizi

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 40-maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zo‘ravonlik bilan bog‘liq bo‘lgan bugungi kundagi holatlar, ularning oldini olishga tezkor hodimlarning o‘rni va olib borilayotgan islohotlar, ushbu jinoyatning kriminologik tavsifi, yoritilgan.

Kalit so‘zlar: himoya qilish, ustuvor yo‘nalish, shoshilinch ruhiy, og‘irlik darajasi, anonim, sog‘lig‘i, qadr-qimmat.

KIRISH

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik turlari quyidagicha:

Jismoniy zo‘ravonlik — bolalarga turli darajadagi tan jarohatlarini yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli ahvolda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatmaslik.

Jinsiy zo‘ravonlik — bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlar qilish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan:

- nomusga tegish;
- jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish;
- jinsiy aloqa qilishga majburlash;
- 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish;
- voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarga ijrochi sifatida jalb qilish;
- voyaga yetmagan shaxsni jalb qilgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish;
- aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yoxud bolaning oqzligidan foydalangan holda shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish;

- shahvoning shilqimlik, shuningdek, qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan har qanday boshqa jinsiy harakatlar.

Ruhiy zo'rvonlik — bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek, bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo'rvonlik shakli, shu jumladan zo'rvonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligidan xavotir uyg'otadigan, o'zini himoya qila olmasligiga olib keladigan yoki ruhiy salomatligiga zarar yetkazadigan harakatlar (harakatsizlik).

G'amxo'rlik ko'rsatmaslik — zarur imkoniyatlarga, bilim va ko'nikmalarga, shu jumladan, buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta'lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona (ular o'rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning sog'lig'i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishining buzilishiga olib kelishi.

Bolaning asosiy ehtiyojlari — bolaning to'laqonli rivojlanishi, jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy va boshqa zarur sharoitlar bilan ta'minlash, xavfsizlik, ta'lim olish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish va imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bolalarni ekspluatatsiya qilish — boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan, odam savdosi, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek, nikohga yoki er-xotin bo'lib yashashga majburlash, ma'lum bir diniy ta'lim olishga undash, har qanday shaklda mehnatga majburlash uchun jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish kiradi.

Ta'qib qilish (bulling) — bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanishi, u bilan har qanday muloqotni rad etishi, uning mulkini tortib olishi va zarar yetkazishi, jismoniy, ruhiy yoki aqliy xususiyatlarini omma oldida muhokama qilishi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishi yoki sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazishi, shu jumladan, internet orqali amalga oshiriladigan uzoq muddatli ruhiy va jismoniy tajovuzkor ta'sir o'tkazishidir. Hujjatda davlat bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni

ko‘rishi, shu jumladan, bola va uning oilasini qo‘llab-quvvatlashi hamda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va oldini olish, zo‘ravonlik holatlari haqida xabar berish, ushbu holatlarni tergov qilish, aybdorlarni javobgarlikka tortishning muqarrarligini ta‘minlash, zo‘ravonlik qurbonlarini rehabilitatsiya qilish, ularning huquqlarini tiklash va ijtimoiy moslashtirishni ta‘minlash mexanizmlarini yaratishi kerakligi belgilangan. Oiladagi zo‘ravonlik nafaqat jismoniy, psixologik, balki bu jinsiy yoki iqtisodiy zo‘ravonlik ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Zo‘ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo‘ravonlik turlari, og‘irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so‘nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan. Bugungi kunda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murossasizlik muhitini yaratish uchun choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo‘ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo‘ravonliklardan himoya qiladi. Milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi. Biz barcha qizlar va o‘g‘il bolalar zo‘ravonlikning har qanday shakllaridan erkin bo‘lib voyaga yetishi va zo‘ravonlikka duchor bo‘lganlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan parvarish, qo‘llab-quvvatlash, odil sudlov va boshqa xizmatlardan ko‘proq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta‘minlashga harakat qilamiz.

O‘z ishimizda nogironligi bo‘lgan bolalar, internat turidagi muassasalarda yashovchi bolalar, ozodlikdan mahrum etilgan bolalar, migratsiyadan jabrlangan bolalar va OIV bilan yashayotgan bolalar kabi eng yordamga muhtojlarga e‘tibor qaratamiz.

O‘zbekiston hukumati bilan bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurash bo‘yicha keng qamrovli, dalillarga asoslangan, ko‘p tarmoqli rejalar va harakatlarni moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida milliy darajadagi sa‘y-harakatlarni kuchaytirish bo‘yicha hamkorlik qilishga sodiqmiz.

Biz qizlar va o‘g‘il bolalarni zo‘ravonlik va diskriminatsiyadan himoya qilish bo‘yicha huquqiy bazani mustahkamlashga, zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha xizmatlar sifatini, qamrovini va muvofiqlashtirishni yaxshilashga, bunday holatlar haqida xabar berish va ularga javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirishga harakat qilamiz.

Biz ijobiy ota-onalik qilish va gender jihatlari e‘tiborga olingan munosabat, ko‘nikma va amaliyotlarni ilgari surishda davom etamiz. UNICEF, shuningdek, hayotiy ko‘nikmalar va zo‘ravonlikning oldini olishga o‘rgatish, sog‘lom munosabatlar haqida yoshga mos ma‘lumot berish, ularning huquqlari va mavjud yordam xizmatlari haqida ma‘lumot berish bo‘yicha dasturlardan foydalanishda bolalarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Aytish kerakki, shu kunlarda yurtimizda “Zo‘ravonliklarga qarshi birgalikda kurashamiz!” mavzusida aksiya o‘tkazilmoqda. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – bu "jins belgisiga asoslangan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zararga olib keladigan yoki ayollarga aziyat yetkazadigan, shuningdek, bunday harakatlarning tahdidlari, jamiyat yoki shaxsiy hayotda bo‘lsin, majburlash yoki ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – inson huquqlarining eng keng tarqalgan buzilishlaridan biridir. U xotin-qizlarni tenglik, xavfsiz hayotdan mahrum qiladi, inson qadr-qimmatini yerga uradi va asosiy erkinliklarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, butun dunyoda bu muammoga qarshi kurash olib boriladi.

O‘zbekistonda ham keyingi vaqtlarda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ularga yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda ushbu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu munosabat bilan og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va

turmushida turli hil zo‘ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarni ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ularga motivatsiya berish, zo‘ravonlikka qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida jamoatchilik e‘tiborini ushbu masalaga jalb etishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar bilan ishlarni takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi qaroriga asosan Mahalla va oilani qo‘llabquvvatlash vazirligi huzurida 29 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha respublika markazi, shu jumladan, 1 ta Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlar tashkil etildi.

Markazlarning asosiy vazifalaridan biri tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatishdan iborat.

Zo‘ravonlikning oldini olishda ko‘p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo‘ravonlik darajasi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. Masalan, konsentrlangan (mintaqaviy) qashshoqlik, daromadlar va gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish, bolalar va ota-onalar o‘rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo‘qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xattiharakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo‘lib kelgan bo‘lsada, zo‘ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish bo‘yicha sa‘yharakatlarni doimiy ravishda izchil amalga oshirish sodir etilayotgan zo‘ravonlikning kamayishiga olib kelishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. B. Hojiyev “HUQUQIY MADANIYAT” TOSHKENT

2. SAIDOV .A TOJIMATOV .U “HUQUQ NAZARIYASI”T.ADOLAT
2001y.22bet

3. SAIDOV .A TOJIMATOV .U “HUQUQ NAZARIYASI”T.ADOLAT
2001y.35bet

4. Бешкарев А.А. «Письма русского путешественника» Н.М. Карамзина:
Проблемы поэтики: дис. ... канд. филол. наук. Сыктывкар, 2003. -С.33.